

Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi*



MIGRATSIYA MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATDAN O'RGANILISHI

Annotatsiya. *Maqolada ayollar migratsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, bugungi kunda migratsiyaning ijtimoiy-psixologik muammolari hamda ayollar migratsiyasining psixologik omillari ifodalangan.*

Аннотация. *В статье представлен анализ исследований по женской миграции. Также освещены социально-психологические проблемы миграции на сегодняшний день и психологические факторы женской миграции.*

Annotation. *The article presents an analysis of studies on female migration. It also discusses the social-psychological issues of migration today and the psychological factors of women's migration.*

Tayanch so'zlar: *migratsiya, oila, ayollar, mehnat migratsiyasi, ayollar migratsiyasi, ijtimoiy himoya.*

Ключевые слова: *миграция, семья, женщины, трудовая миграция, женская миграция, социальная защита.*

Key words: *migration, family, women, labor migration, women's migration, social protection.*

***“Migratsiya”
atamasi lotincha
“migratio”
va “migro”
soʻzlaridan
kelib chiqqan
boʻlib “koʻchib
oʻtaman” va
“koʻchib ketaman”
degan maʼnoni
bildiradi. Ushbu
atamaning keng
qoʻllanilishiga
qaramay, uning
yagona talqini
yoʻq.***

Kirish. Insoniyat paydo boʻlgandan buyon tinimsiz rivojlanishda davom etmoqda. Jamiyatda yashayotgan har bir inson maʼlum bir maqsadga erishish uchun yashaydi va bunga uning qondirilmagan ehtiyojlari sabab boʻladi. Shuningdek, shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo qiluvchi ichki turtki bu – motivdir.¹

Jamiyatdagi har bir shaxs ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik motivlar sabab ishlaydi, oʻqiydi va biror faoliyat bilan shugʻullanadi. Shu sababli hozirda dunyoda migratsiyaning juda tez oʻsayotganiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Ammo migratsiya, aslida, qadim zamonlardan beri mavjud boʻlgan global jarayondir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab migratsiya jarayonlari darajasi oshib bordi. Bunga globallashuv va integratsiya jarayonlari, yagona makon-mehnat bozori, xizmatlar, tovarlar, maʼlumotlar yaratilishi yordam berdi.

“Migratsiya” atamasi lotincha “migratio” va “migro” soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib “koʻchib oʻtaman” va “koʻchib ketaman” degan maʼnoni bildiradi. Ushbu atamaning keng qoʻllanilishiga qaramay, uning yagona talqini yoʻq. XMT Xalqaro Migratsiya Tashkiloti migratsiyani: “odamlarning odatiy yashash joyidan xalqaro chegara orqali yoki davlat chegaralari ichida koʻchib oʻtishi”, – deb taʼriflaydi².

Xalqaro migratsiya bugungi kunda zamonaviy koʻrinish kasb etmoqda. Buning sababi ogʻir jismoniy mehnat taʼlab qilmaydigan sohalarning rivojlanishi va migratsiyaning feminizatsiyalashuvi natijasida ayollar migratsiyasi rivojlanib borishidir. 2021-yil holatiga koʻra, dunyo boʻylab migrantlar soni 281 million kishini (ularning 48% ini, yaʼni 135 millionini ayol migrantlar) tashkil qiladi. Dunyo boʻylab aynan mehnat migrantlari esa 169 million kishini tashkil qilgan boʻlib, ularning 41,5% ini, yaʼni 70,1 millionini ayollar tashkil qilgan.³

Migrant erkaklar migratsiya jarayonida asosiy faoliyati qurilish, ishlab chiqarish, yuk tashish va boshqa sohalar hisoblanadi. Migrant ayollar esa bugungi kunda maishiy xizmat koʻrsatish sohalarida faoliyat olib bormoqda. Hozirda rivojlangan davlatlarda ayol migrantlarga talab yuqoriligi bois ayollar migratsiyasi rivojlanishda davom etmoqda. Shuningdek, ayollar migratsiyasi sababiga koʻra bir nechta yoʻnalishlarga

¹ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Motiv_\(psixologiyada\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Motiv_(psixologiyada))

² Кордуелл М. Психология. А-Я: Словарь-справочник. – М., 1999. – С. 334. <https://www.iom.int/key-migration-terms#Migration>

³ Key global migration figures, 2019-2022. IOM UN migration 2022, October <https://www.migrationdataportal.org/sites/g/files/tmzbd1251/files/2022>

ega. Jumladan, mehnat migratsiyasi, nikoh migratsiyasi, ta'lim migratsiyasi va kasb migratsiyasi kabi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ayollar migratsiyasiga qiziqish butun dunyo olimlarining ilmiy izlanishlarida namoyon bo'lmoqda. Xususan, ayollar migratsiyasining nazariy asoslarini M.Morokvasik, K.Harzig, S.Chant, A.Ichduygu, S.Castles, M.Miller, X.Zlotnik va boshqalar o'z ilmiy ishlarida o'rganishgan. Iqtisodiy va gender sotsiologiyasi doirasida P.Pessar, S.Mahler, X.Lutz, J.Karlinga, P.Hondagneu, N.Sotelo, Oishilar ayollar migratsiyasini tadqiq qilishgan.

Migratsiya jarayoni va migrantlar faoliyatini o'rganishga e'tibor berilayotgan bo'lsa-da, ayollar migratsiyasi migratsiyaning kam o'rganilgan yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Bunga sabab ayollarning hamon orqa fonda qolayotganidir. Ayollar migratsiyasining motivlari geografik joylashuviga, mamlakatiga va ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra turlicha, ammo ularning maqsadlarida umumiylik mavjudligini D.R Peskova, B.Obreular o'z ilmiy ishlarida yoritishgan. Tadqiqotchilar moddiy qiyinchiliklar, uy-joy olishga ehtiyoj, qashshoqlik, ish joyining yetarli emasligi, maoshlar kamligi hamda farzandlar yoki yaqinlarining betoblighi kabilarni ayollar migratsiyasi motivi sifatida keltirishgan⁴.

Shu bilan birga, tadqiqotchilar ayollarning har qanday sabab tufayli mehnat migratsiyasini amalga oshirish ijobiy natijadan ko'ra salbiy natijaga olib kelishini ta'kidlashgan. Hozir ayollar orasida ommalashayotgan migratsiya turlaridan biri – bu nikoh migratsiyasidir. Rossiyalik psixologlar O.V.Mitina va V.Petrenkolar :

“Rossiyada nikoh migratsiyasining ommalashish motivi – bu chet ellik kuyov moddiy erkinlik olib keladi”, – deb shakllanib qolgan stereotiplar ekanini aniqlashdi. Nikoh migratsiyasi motivlari sifatida tadqiqotchilar quyidagilarni ko'rsatishgan. Kafolatlangan turmush darajasi, turmush o'rtog'ining martabasidan foydalanib muammolarni yechish istagi, xavfsizlik va barqarorlikka ega bo'lish kabilar.

Rossiyaga nikoh migratsiyasini amalga oshirayotgan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston va Qirg'iziston ayollari yetakchilik qilishadi. O'zbekiston va Tojikiston ayollari ulardan keyingi o'rinlarni egallamoqda. Turkmaniston ayollari deyarli bu borada natijaga ega emas. Markaziy Osiyo davlatlari orasida erkaklardan ko'ra ayollarning nikoh migratsiyasi yuqori ko'rsatkichga ega. Nikoh migratsiyasi motivi ko'p omilli hisoblanadi. S.V. Ryazanseva, S.Y.Sivoplyasovalar Markaziy

Migratsiya jarayoni va migrantlar faoliyatini o'rganishga e'tibor berilayotgan bo'lsa-da, ayollar migratsiyasi migratsiyaning kam o'rganilgan yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Bunga sabab ayollarning hamon orqa fonda qolayotganidir.

⁴ Полетаев, Ю. Ф. Флоринская ; под ред. Е. В. Тюрюкановой. — Москва : Макс пресс, 2011 <https://economics.hse.ru/data/2012/03/06/1273034090/8B.pdf>

***Nikoh migratsiyasi
rivojlangan
mamlakatlarga
iqtisodiy
rivojlanmagan,
moliyaviy yashash
darajasi past
ko'rsatkichga
ega bo'lgan
davlatlardagi
migrantlarning
borishi va oila
qurishi hisobiga
kundan kunga
o'sib bormoqda.
Ayollar uchun
eng katta motiv
moliyaviy
barqarorlik bo'lsa,
erkaklar uchun
boshqa omillar
ustunlik qiladi.***

Osiyoda nikoh migratsiyasiga sabab bo'luvchi motivlar deb quydagilarni qayd etgan: "Markaziy Osiyo xalqining madaniy va diniy an'analari, jamiyatda qabul qilingan normalari, iqtisodiy va ijtimoiy sharoiti, mamlakatdagi gender huquqiy normalari, oilaviy munosabatlardan olgan tajribalari va boshqalar. Rossiyaga O'zbekistondan kelgan migrantlar 2016-2017-yillarda ayollardan erkaklar ko'p bo'lsa-da, ammo nikoh migratsiyasi ayollarda yo'qori ko'rsatkichga ega bo'lgan. 2016-yilda har 1000 nafar migrant ayolga 152 ta va har 1000 nafar erkak migrantga 139 nikoh qayd etilgan. 2017-yilda esa 149 ta ayollar, 118 ta erkaklar nikohi to'g'ri kelgan⁵.

Nikoh migratsiyasi rivojlangan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanmagan, moliyaviy yashash darajasi past ko'rsatkichga ega bo'lgan davlatlardagi migrantlarning borishi va oila qurishi hisobiga kundan kunga o'sib bormoqda. Ayollar uchun eng katta motiv moliyaviy barqarorlik bo'lsa, erkaklar uchun boshqa omillar ustunlik qiladi. Masalan, boshqa davlatda yashash huquqini qo'lga kiritish kabi. Migratsiyaning qanday ko'rinishi bo'lishidan qat'i nazar, ijtimoiy psixologik muommolar mavjud bo'ladi. Jumladan, adaptatsiya jarayoni, til bilan bog'liq muommolar, qadriyatlar tizimi kabi insonga begona jarayonlarni o'zlashtirishda individual psixologik stressni boshdan kechiradi. Migratsiyaning eng asosiy qismini mehnat migratsiyasi egallaydi. Mehnat jarayonidagi eng katta insonga xavf beruvchi omil bu jismoniy va psixologik stress haddan oshib ketishi hisoblanadi.

M.Xodjiyev, N.F.Izmerov, Buxtiyarov I.Vlar 2017-yili Rossiya davlatida ishlovchi mehnat migrantlarini ish jarayonidagi psixo-emotsional stressini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishdi. Tadqiqotlar ishlash sohasiga qarab guruhlar ajratilib, psixodiagnostik metodlardan foydalangan holda olib borildi. Qurilish, savdo, qishloq xo'jaligi sohasidagi hamda migratsiyadagi ayollar band bo'lgan ijtimoiy soha vakillari o'rganish uchun tanlandi. Tadqiqot natijasiga ko'ra eng yuqori stressni, psixo-emotsional buzilishni qurilish sohasi vakillari boshdan kechirishi ma'lum bo'ldi. Sabablari quyidagicha izohlandi: ish yuklamasining ko'pligi, jismoniy og'ir mehnat, 10-12 soatlab davom etadigan ish va maosh vaqtida berilmasligi, rahbarlarning yomon muomalasi, rag'bat yo'qligi kabi omillar natijasida migrantlarda

⁵ Митина О.В., Петренко В.Ф. Кросс-культурное исследование стереотипов женского поведения (Россия-США) // Вопросы психологии. - 2000. - №1 <https://cyberleninka.ru/article/n/osmyslennost-zhizni-kak-vazhneyshiy-komponent-zhiznennogo-samoopredeleniya>

sogʻligi bilan bogʻliq muommolarga duch keladi. Jumladan, psixo-emotsional charchash, tez gʻazablanish, ishlashga nisbatan xohish yoʻqolishi, ishdan va oʻzidan qoniqmaslik kabi psixologik muommolar boshlanadi. Ikkinchi oʻrinda ijtimoiy sohada band boʻlgan migrant ayollarda (enagalik, qariyalar parvarishi, tozalash ishlari, kafe, restoran xodimi) ijtimoiy-psixologik muommo sifatida quyidagilar koʻrsatib oʻtildi. Migrant ayollarni kamsitish, madaniyat va qadriyatlardagi farqlar va oʻzlashtirishdagi muammolar, zoʻravonlikka uchrash, migrant ayollarning jinsiy zoʻrlanishi (tadqiqotda ishtirok etganlarning 3-5% tashkil qilgan) kabi ijtimoiy psixologik muommolar mavjud boʻlib, natijada ayollar psixologik travma olishmoqda⁶.

Migrantlarning ruhiy holati tekshirilganda shaxsiy xavotirlanish hissi yuqori chiqqan, bunga sabab noprofessionallik ekani aniqlandi. Tadqiqot migrantlarga quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdi:

- kasb tanlash madaniyatini oshirish;
- ish kunini tartibga solish;
- shaxslararo munosabatlarni toʻgʻri yoʻlga qoʻyish;
- dam olishni tizimli tarzda rejaga kiritish.

Migrantlarda ijtimoiy, shaxsiy individual psixologik muammolardan biri sifatida R.P.Subedi va M.V.Rosenberglar bilim, malaka, maʼlumot darajasiga koʻra faoliyat olib bora olmasligi ekanligini tadqiqot doirasida aniqlashdi. Masalan, Oliy maʼlumotli migrant migratsiya qilgan davlatida oddiy taksi haydovchisi boʻlishi yoki oliy maʼlumotli oʻqituvchi tozalik xodimi boʻlishi mumkin. Umuman olganda, oʻz davlatidagi mavqeyidan pastga tushganda his qiladigan kamsitilish hissi, qadriyatlar tizimiga mos kelmaydigan munosabat migrant uchun yengishi qiyin boʻlgan psixologik holat hisoblanadi. Mehnat migrantlarining migratsiyadan asosiy motivi munosib ish va daromad hisoblanadi. Ammo migrantning maqsadi va migratsiya jarayonidagi vaziyat togʻri kelmaganda shaxsda kuchli ruhiy charchash va surunkali kassaliklar paydo boʻlishi boshlanadi. Migratsiyadagi shaxslarning koʻp hollarda tanlov imkoniyatlari boʻlmaydi. Bunday muammoga uchramaslik uchun migratsiyaga tayyorgarlik koʻrayotgan shaxs oʻz ijtimoiy mavqeyi ona yurtida qanday boʻlsa, oʻzga mamlakatda hammasini boshidan boshlashi kerakligini tushungan

***Migrantlarda
ijtimoiy, shaxsiy
indevedual
psixologik
muammolardan
biri sifatida
R.P.Subedi va
M.V.Rosenberglar
bilim, malaka,
maʼlumot
darajasiga koʻra
faoliyat olib
bora olmasligi
ekanligini
tadqiqot doirasida
aniqlashdi.
Masalan, Oliy
maʼlumotli migrant
migratsiya qilgan
davlatida oddiy
taksi haydovchisi
boʻlishi yoki
oliy maʼlumotli
oʻqituvchi tozalik
xodimi boʻlishi
mumkin.***

⁶ Ходжиев.М.Н.Ф. Измеров, И.В. Бухтияров Изучение социально-психологических факторов формирования профессионального стресса у трудовых мигрантов Россия, 105275, г. Москва, пр. Буденного, 31 <https://cyberleninka.ru/article/n/izuchenie-sotsialno-psihologicheskikh-faktorov-formirovaniya-professionalnogo-stressa-u-trudovyh-migrantov>

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar shaxsiy manfaat va ko'proq avtonomiyaga intilishlari va o'zlarini patriarxal muhitdan, jumladan, zo'ravonlik keng tarqalgan sharoitlardan chetlatish istagida bo'lishlari uchun ham migratsiya qilishmoqda.

holda o'zini ruhiy tayyorlashi va immigrant mamlakatda qanday ish bilan shug'ullanishi unga mos kelishini rejalashtirishi qiyinchiliklarni kamaytirishga sabab bo'luvchi omil bo'la oladi⁷.

Ayollar migratsiyasi migratsiyaning hamma ko'rinishlarida tezlik bilan rivojlanmoqda. Shulardan biri bu majburiy migratsiyadir. Majburiy migratsiya sodir bo'lishiga bir qancha sabablar mavjud. Masalan siyosiy mamlakatdagi notinchlik, mintaqaviy muommolar (suv taqchilligi, yashash uchun sharoit yo'qolib borishi) qashshoqlik. Qashshoqlik sabab migratsiya jarayoni ortib borishi tabiiy jarayon hisoblanadi, ammo o'ta qashshoqlikda yashovchi mamlakatdagi ayollar ham migratsiya qila olishmaydi, chunki transport muammosi, boshqa davlatga borgungacha bo'lgan xarajatlar, shu bilan bir qatorda, o'ta qashshoq hududlarda yashaydigan ayollarning ma'lumot darajasi ham muammoli holat hisoblanadi. Ayollar migratsiyasi, asosan, rivojlanish bosqichidagi mamlakatlarda ko'p sodir bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim ham, kasblar ham, yashash sharoiti va chetga chiqish imkoniyatlari ham rivojlanib boradi. Fuqorolar ta'lim olish uchun, yaxshi mablag' topish uchun, eng oldi hunarlarni o'rganish uchun ham migratsiya qilishadi. Ayollar hozirda erakaklardan mustaqil migratsiya qilishi ko'paymoqda. Bunga sabab gender tenglik va ayollar uchun imkoniyat oshib borayotgani hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, ayollar hamon migratsiya jarayonida ikkinchi darajali bo'lib ko'rinishmoqda va migratsiya qurbonlari orasida ayollar yetakchilik qilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar shaxsiy manfaat va ko'proq avtonomiyaga intilishlari hamda o'zlarini patriarxal muhitdan, jumladan, zo'ravonlik keng tarqalgan sharoitlardan chetlatish istagida bo'lishlari uchun ham migratsiya qilishmoqda⁸.

Ayollar migratsiyasi turlari bo'yicha oxirgi o'rinlarda turuvchi ta'lim migratsiyasi ham ayollarni o'ziga jalb qilmoqda. Ta'lim migratsiyasi asosini yosh ayollar tashkil qiladi. E'tiborli tomoni shundaki, ayollarga zulm, zo'ravonlik ko'p bo'lgan hamda huquqi ta'minlanmagan davlatlardan ketishning eng maqul yo'li ta'lim migratsiyasi hisoblanadi. Chunki ta'lim migratsiyasini vaqtinchalik bo'lsa ham, uzoq vaqtli migratsiyaga aylantirish imkoniyati yuqori. Ta'lim olgan joyida doimiy

⁷ Прибыльская.М. В «Психическое здоровье трудовых мигрантов из стран ближнего зарубежья в период адаптации» выпускная квалификационная работа. – Санкт-Петербург, 2010. – С. 56-60.

⁸ Hania. Z Female migrants: bridging the gaps throughout the life cycle selected papers of the unfpa-iom expert group meeting. – New York, 2-3 may 2006 // https://publications.iom.int/system/files/pdf/female_migrants.pdf

ishlash uchun qolishi yoki oila qurib, rivojlangan davlat fuqoroligiga erishish mumkin.

Ayollar tarixan olib qaralsa, juda ko'p davlatlarda erkaklardan oldin doimiy ichki va tashqi migratsiya ishtirokchisi bo'lgan. Masalan, Hindiston, O'rta Osiyo hududlarida ayollar turmush o'rtog'ining uyiga nikohdan so'ng ko'chib o'tgan. Tashqi migratsiya esa kiyinchalik boshqa davlatlarga turmushga chiqish orqali rivojlanib borgan. Yevropa va AQSh, Rossiya kabi davlatlar ayollar nikoh migratsiyasi uchun mezb-on erkaklar mamlakatlari bo'lib qolmoqda. Bu xalqaro migratsiya siyosatining og'riqli muammolaridan biri hisoblanadi. Hozirda "soxta nikohlar" ko'payib bormoqda, shu bilan birga, ayollarni "odam savdosining" qurboni bo'lishiga olib kelishi ehtimolini kuchaytirmoqda. Ayollar migratsiyasi va "odam savdosi o'rtasida juda nozik chiziq mavjud. Ayollarni qul qilib yoki fohishalikka sotish ayollar migratsiyasidagi eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Hozirda juda ko'plab tashkilotlar ayol migrantlar huquqi uchun kurashib kelmoqda.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, migratsiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi migratsiyadan oldingi migratsiyaga undovchi motivga bog'liq. Motivlarning ayollar va erkaklarda turlicha bo'lishini jinsga bog'liq deb tushuntirish mumkin. Bundan tashqari, erkak va ayolda dunyoni, voqea hodisalarni qabul qilishdagi psixik holat ham tubdan farq qiladi.⁹

Shvetsariyaning milliy tadqiqot markazi olimlari Gerber R va Wanner P malakali migrant ayollarning ijtimoiy psixologik muammolarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdi. Malakali mutaxassis bo'lgan ayollar migratsiya motivi nikoh bilan bog'liq bo'lganda ayol kishida psixologik stress migratsiyadan oldin boshlanadi. Chunki ayol katta tanlov oldida turadi. Ijtimoiy tan olingan, moddiy taminlangan, hamkasblar hurmati kabi muhim munosabatlardan voz kechish kabi fikrlar hissiy qo'zg'alishga sabab bo'ladi. Ko'chib o'tgan ayollarda diskvalifikatsiya va deemansipatsiya holatiga tushib qolish holatlari kuzatiladi. Bunday vaqtda ayollarda turmush o'rtog'iga har tarafd-an qaramlik paydo bo'lishi kuzatiladi. Begona ijtimoiy muhit, ish, karyera hamda ijtimoiy munosabatlarni boshidan boshlash ayol migrantlarda ruhiy qiyinchilik tug'diradi. Agar ayol o'ziga mos ish, maosh topa olmasa, o'zini faqat rafiq-a sifatida ko'ra boshlaydi. Migratsiyadan

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha migratsiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi migratsiyadan oldingi migratsiyaga undovchi motivga bog'liq. Motivlarning ayollar va erkaklarda turlicha bo'lishini jinsga bog'liq deb tushuntirish mumkin.

⁹ Yang F. Breadwinning: Migrant workers' family motivation in facing life-threatening events and its performance implications. Journal of Business Research, 2022, no. 150, pp. 491–502. doi:10.1016/j.jbusres.2022.06.038 https://psyjournals.ru/en/journals/psylaw/archive/2023_n3/Mironova_Ruonala

***Migratsiyaga
tayyorgarlik
ko'rayotgan ayol,
albatta, ko'chib
o'tayotgan
davlatini
urf-odatini,
an'analarini,
qadriyatlar
tizimini, tilini
o'rganishga
harakat qiladi.
Ko'chib o'tish
maqsadiga ko'ra
rejalar tuzadi.
Natijada ayol
migratsiyadagi
ideal o'zini ongida
yaratadi.***

oldingi motiv bo'lgan ambitsiyalari sezilarli darajada puchga chiqadi. Ayolda esa depressiya xavfi o'sib boradi. Ammo migratsiyadagi ayollar ruhiy yordam olishga psixiatr yoki psixologga borishni xohlashmaydi. Bunga davlatlardagi madaniyatning turlichaligi sabab sifatida ko'rsatiladi.

Migratsiya motivi moddiy ehtiyoj bo'lgan ayollar ham madaniy stressni boshdan kechiradilar. Qabul qilishi qiyin bo'lgan munosabatlar, qadriyatlar, komunikativ qiyinchiliklar bo'lishiga qaramay, muhitga moslashishga harakat qilayotgan ayol o'zini rol o'ynayotgandek his qilishi tadqiqotlarda aniqlangan.

Migratsiyaga tayyorgarlik ko'rayotgan ayol, albatta, ko'chib o'tayotgan davlatining urf-odatini, an'analarini, qadriyatlar tizimini, tilini o'rganishga harakat qiladi. Ko'chib o'tish maqsadiga ko'ra rejalar tuzadi. Natijada ayol migratsiyadagi ideal o'zini ongida yaratadi. Migratsiya jarayonida esa shunchalik tafovut katta bo'lishi mumkinki, ongidagi "Ideal men va haqiqiy meni" o'rtasida chalkashlik, yolg'izlik hissi paydo bo'ladi. Kelajagi haqida salbiy ta'ssavurlar paydo bo'ladi. Hozirgi kun haqida o'ylay olmaydi. O'ziga ishonchni va haqiqiy o'zligini yo'qota boshlaydi. Bu jarayon har bir migrantda yuz bermasligi mumkin. Asosan, birinchi bor migratsiyaga borayotgan va melanxoliyaga moyil shaxslarda ko'proq va kuchliroq kuzatiladi. Streesli vaziyatlarda inson imkoniyatlarni yoki erishilayotgan natijalarni past baholashga moyilligi oshadi. Ko'ngilsizliklarni esa katta deb hisoblaydi. Bu insonning shaxsiyati bilan bog'liq jarayon bo'lgani bois psixologik xizmat doirasida ishlash samara beradi.¹⁰

Xulosa. O'rganilgan tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, migratsiya bugungi kunda har qachongidan ham shiddat bilan rivojlanmoqda. Bunga nafaqat moddiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillarni, balki psixologik motivlarni ham migratsiya sabablari qatoriga qo'shish mumkin. Ammo ayollar migratsiyasi bo'yicha tadqiqotlar hali yetarli darajada deb hisoblab bo'lmaydi. Bu esa yanada shu yo'nalishni chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

¹⁰ Kazmierska, K. (2006). Migration experiences and changes of identity: the analysis of a narrative. Historical Social Research, 31(3), 72-89. <https://doi.org/10.12759/hsr.31.2006.3.72-89>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Motiv_\(psixologiyada\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Motiv_(psixologiyada))
2. Кордуелл М. Психология. А-Я: Словарь-справочник. – М., 1999. – С. 334. <https://www.iom.int/key-migration-terms#Migration>
3. Key global migration figures, 2019-2022. IOM UN migration 2022, October <https://www.migrationdataportal.org/sites/g/files/tmzbd1251/files/2022>
4. Полетаев Ю.Ф. Флоринская ; под ред. Е.В.Тюрюкановой. — Москва : Макс пресс, 2011 <https://economics.hse.ru/data/2012/03/06/1273034090/8B.pdf>
5. Митина О.В., Петренко В.Ф. Кросс-культурное исследование стереотипов женского поведения (Россия-США) // Вопросы психологии. 2000. – №1 <https://cyberleninka.ru/article/n/osmyslennost-zhizni-kak-vazhneyshiy-komponent-zhiznennogo-samoopredeleniya>
6. Ходжиев.М Н.Ф. Измеров, И.В. Бухтияров Изучение социально-психологических факторов формирования профессионального стресса у трудовых мигрантов Россия, 105275, г. – Москва, пр. Буденного, 31 <https://cyberleninka.ru/article/n/izuchenie-sotsialno-psihologicheskikh-faktorov-formirovaniya-professionalnogo-stressa-u-trudovyh-migrantov>
7. Прибыльская.М. В «Психическое здоровье трудовых мигрантов из стран ближнего зарубежья в период адаптации» выпускная квалификационная работа. – Санкт-Петербург, 2010. – С. 56-60
8. Hania. Z Female migrants: bridging the gaps throughout the life cycle selected papers of the unfpa-iom expert group meeting. – New York, 2-3 may 2006 https://publications.iom.int/system/files/pdf/female_migrants.pdf
9. Yang F. Breadwinning: Migrant workers' family motivation in facing life-threatening events and its performance implications // Journal of Business Research, 2022, no. 150, pp. 491–502. doi:10.1016/j.jbusres.2022.06.038 https://psyjournals.ru/en/journals/psylaw/archive/2023_n3/Mironova_Ruonala
10. Kazmierska, K. (2006). Migration experiences and changes of identity: the analysis of a narrative. Historical Social Research, 31 (3), 72-89. <https://doi.org/10.12759/hsr.31.2006.3.72-89>